



Ekologik muammolar yechimini kutmoqda

4-betda o'qing ↗



Buzilgan do'kon zararini to'lash paysalga solingan

7-betda o'qing ↗

INSON va qonun

2024-YIL
26-NOYABR
SESHANBA
№ 47
(1459)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

ADLIYA XABARI

O'ZBEKISTON INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI YANA BIR XALQARO SHARTNOMANI IMZOLADI

Joriy yilning 11-22-noyabr kunlari Saudiya Arabistonni poytaxti Ar-Riyod shahrida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan Namunalar bo'yicha qonunlar to'g'risidagi shartnoma (Design Law Treaty) loyihasini ko'rib chiqish va imzolash maqsadida diplomatik konferensiya tashkil etildi. Unda BIMTga a'zo 193 ta mamlakat, jumladan O'zbekiston ham ishtirok etdi.

Mazkur xalqaro hujjatni imzolash masalasi Adliya vazirligi tomonidan Tashqi ishlar vazirligi hamda boshqa tegishli manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda belgilangan tartibda ishlab chiqildi.



O'zbekiston nomidan ushbu xalqaro shartnomani Saudiya Arabistonidagi O'zbekistonning favqulodda va muxtor elchisi N. Turg'unov imzoladi.

Shartnomaning asosiy maqsadi hunarmandlar, dizaynerlar va muhan-

dislar uchun sanoat namunalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini soddalashtirish, yagona xalqaro standartlarni belgilash, shuningdek, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorda himoya qilish

uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, 2024-yilning 5-iyunida O'zbekiston Sanoat namunalarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha Gaaga tizimiga a'zo bo'ldi. Ushbu tizim orqali sanoat namunasini bir hujjat orqali 75 ta davlatda ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati yaratildi.

Ma'lumot uchun: 2024-yilning 10 oyligi davomida Adliya vazirligiga sanoat namunasiga oid 213 ta talabnoma kelib tushgan bo'lib, shundan ekspertiza natijalariga ko'ra 153 ta obyekt ro'yxatga olingan.

Adliya vazirligi axborot xizmati

MINBAR



O'zbekiston tez o'sib borayotgan davlat hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2040-yilga borganda O'zbekistonda aholi soni ellik millionga yaqinlashadi. Bu xalq uchun uning huquq va erkinliklarini ta'minlab berish hamda ularga munosib turmush sharoitlarini yaratish davlatning asosiy majburiyati hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilish zarurati tug'ildi. Aholi soni tobora ko'payib borayotgan davlat uchun bu juda zarur holat hisoblanadi aslida.

Bosh qomusimiz qabul qilingan kun yaqinlashayotgani munosabati bilan Toshkent davlat

yuridik universiteti o'qituvchilari O'zbekiston Konstitutsiyasini yangi tahrirda qabul qilishning zarurati, unda inson huquqlarini ta'minlashdagi kafolatlar hamda boshqa muhim o'zgarishlar haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.



Jahongir BOQIYEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti kafedra mudiri o'rinnbosari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori:

- So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borayotgan siyosat, ya'ni ichki hamda tashqi siyosat

masalasi ham muhimdir. Mamlakatimizning qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalari yo'lga qo'yilganligi va mana shu aloqalarni yanada rivojlantirish, mustahkamlash uchun huquqiy asoslar va kafolatlar zarur hisoblanadi. Huquqiy kafolat sifatida yangi tahrirdagi konstitutsiya qabul qilinishi lozim edi. Bundan tashqari, ko'payib borayotgan xalq uchun samarali boshqaruvni yaratadigan davlat zarur va bu boshqaruvni amalga oshirish uchun huquqiy islohotlar kerak, albatta. Shu sababli, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish zarurati juda yuqori edi.

Yangilangan Konstitutsiyada eng asosiy masala inson huquqlariga oid o'zgartirishlardir. Bu o'zgartirishlarni turli sohalarda ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, ijtimoiy sohada inson huquqlarini ta'minlash holati bo'yicha huquqiy normalar soni uch barobar ko'paydi. Ya'ni, har bir inson uchun huquq va erkinliklarini amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Insonga berilayotgan har bir huquq negizida uni ta'minlash uchun davlatning majburiyati aniq belgilab qo'yildi.

Davomi 8-betda ↗

2 JARAYON

YURTIMIZ tinchligi, xalqimiz farovontigi, jamiyat taraqqiyoti – avvalo mamlakatda qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mukammalligi, mustahkamligi va albatta, uning ijrosini ta'minlashga bog'liq.



QONUNLARDAGI ZIDDIYATLAR VA NOANIQLIKLAR

INSON FOYDASIGA

HAL BO'LISHI

SHART!

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g'oyatda ahamiyatlmasala, adolatli jamiyat qurish yo'lidagi ulkan qadamlardan biri bo'ldi.

Konstitutsiyada O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi.

Inson huquq va erkinliklari qonunlarimizning, har bir vazirlik va idora faoliyatining mazmuniga aylanishi qat'iy talab sifatida belgilandi. Bu hol davlat organlari hamda mansabdar shaxslarning faqat va faqat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi.

Binobarin, qonunlardagi ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga hal bo'lishi shart va zarur. Bunga ko'ra, inson va davlat o'rtaida munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar, turli tushunmovchiliklar bartaraf etiladi.

Shu bilan birga, Konstitutsiyada har kimning uy-joyli bo'lish huquqi belgilanib, ushbu normaning amal qilishi har bir fuqaro, jumladan, yosh oilalarining o'z boshpanasiga ega bo'lishini ta'minlab, kishilarning hayotdan rozilik darajasini oshiradi.

Bundan tashqari, hech kim sudning qarorisor va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyining qiymati hamda u ko'rgan zararning

o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda (bozor qiymatida) qoplanishi ta'minlanishi kafolatlandi.

Aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiyada atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha kompleks choralar belgilanib, davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha choralarini amalga oshiradi, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, degan norma belgilandi. Shaharlarning bosh rejalarini jamoatchilik muhokamasidan majburiy o'tkazilishi shartligi qayd etildi.

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi belgilandi.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lgan ta'limgan olish huquqi va imkoniyati kengaytirildi, o'qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi. Jumladan, fuqarolarning oliy ta'limgan muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilab qo'yildi. Hattoki, avval nazarda tutilmagan normalarning biri sifatida fuqarolarning bepul boshlang'ich kasb-hunarga o'qitilishi ham belgilandi.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari sezilarli darajada kuchaytirilmoqda. Xususan, O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlandi. O'lim jazosini taqiqlashning konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, shaxs sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Ya'ni, shaxsning erkinligini cheklash bilan bog'liq har qanday harakat faqatgina sud qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ushbu qoida tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Bu orqali xalqaro e'tirof etilgan "Xabeas korpus" institutining qo'llanish ko'لامи yanada kengaydi.

Shaxsni ushslash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik (xalqaro e'tirof etilgan "Miranda qoidasi"), sukut saqlash huquqi berildi.


Har kimning yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanish huquqiga ega ekanligi belgilandi. Bunday huquqlarning cheklanishiga yoki uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi belgilab qo'yildi.

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni kafolatlaydi, o'z yurtidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

**Elmurod TURSUNOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
adliya vaziri**

HUQUQSHUNOSLIKKA OID DARSLIKLAR QAYTA KO'RIB CHIQILMOQDA

HAR bir jamiyatning ertangi kuni, uning nechog'lik taraqqiy etishi, albatta, yosh avlodning ta'limg-tarbiyasiaga bog'liq. Shu bois, mamlakatimizda ilm-ma'rifikatga, ta'limg sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, huquqiy ta'limg sifatini oshirish, malakali yurist kadrlarni tayyorlash masalasi davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.



Adliya vazirligi tashabbusi bilan respublika darajasida umumiyo'rta ta'limg muassasalarida o'qitiladigan huquqiy fanlarni takomillashtirish bo'yicha huquqshunoslikka oid darsliklar qayta ko'rib chiqilib, xalqaro va milliy huquq tizimiga moslanmoqda.

Bugungi kunda Adliya vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent davlat yuridik universiteti mutaxassislaridan iborat tarkibda mualliflar jamoasi shakllantirilib, umumiyo'rta ta'limg muassasalarida o'qitiladigan huquqiy fanlarni tahlil qilish va ularni yanada takomillashtirish vazifa qilib belgilandi.

Shunga muvofiq, Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilarini va darslik mualliflarini ishtirokida umumta'limg maktablarining amaldagi "Davlat va huquq asoslari" fani o'quv dasturlari va darsliklarining yangilangan Konstitutsiya norma va qoidalariga mosligi tahlil qilindi. 8-sinf hamda 9 va 10-sinflar uchun "Davlat va huquq asoslari" darsligi yaratildi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2024-yil 24-maydag'i "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi farmoniga asosan maktablarda "Huquq sinfi" va huquq fanlari chuqurlashtirilgan holda o'qitilishini tashkil etish orqali yuridik kadrlarni tayyorlashda "maktab-litsey-texnikum-universitet" tizimini joriy etish belgilangan.

Endilikda, ya'ni 2024/2025-o'quv yilidan boshlab maktablarda Adliya vazirligining maxsus elektron platformasi orqali huquq fani o'qituvchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini uzlusiz oshirib borish hamda ularni metodik ta'minlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtaida "Huquq bilimdoni" fan olimpiadasi, huquq fani o'qituvchilarini o'rtaida esa "Eng yaxshi huquq o'qituvchisi" ko'rik-tanlov o'tkazib boriladi. Maktab o'quvchilarining huquqiy bilimlarni mustaqil o'zlashtirishiga qaratilgan ko'rgazmali o'quv qo'llanmalari, videoroliklar, kompyuter o'yinlari va mobil ilovalar yaratiladi.

Bundan tashqari, 2024-yil 27-avgustda Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'limg muassasalarida yuridik ta'limg uzlusiz tizimini joriy etish hamda voyaga yetmagan yoshlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, o'quvchilarini "yurisprudensiya" yo'nalishi bo'yicha variativ o'quv rejalarini asosida ta'limg keyingi bosqichlarida samarali ta'limg olishga tayyorlash belgilangan. Shuningdek, nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash amaliyoti bilan uziyi bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan mahorat va o'quv darslarini o'tkazish uchun yuridik amaliyot xodimlarini jaib qilish orqali darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish nazarda tutilgan. Endilikda o'quvchilarining "Davlat va huquq asoslari" fanini mukammal o'zlashtirishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Eng muhim, dars jarayonlariga yuqori kasb mahoratiga hamda professional tayyorgarlikka ega bo'lgan tajribali pedagog o'qituvchilar jaib qilinadi. Shu orqali o'quvchilar "Davlat va huquq asoslari" fanidan maktab, tuman (shahar), viloyat va respublika olimpiadalari-da hamda boshqa tadbirlarda ishtiroy etishga tayyorlanadi.

**Lolaxon KARIMOVA,
Adliya vazirligi mas'ul xodimi**

"ADLIYA KUNI" tadbirlarida...



MAHALLALARDA o'tkazilayotgan "Adliya kuni" tadbirlari davomida Asaka tuman adliya bo'limi tomonidan fuqarolarning kundalik hayotdagi huquqiy muammolari o'rjanilganda, tumanda yashovchi I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga qarab turgan 50 nafar fuqaro ijtimoiy xodimlar tomonidan belgilangan tartibda o'rganib chiqilmagani va "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali hisobga kiritilmagani ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-oktabrdagi qarorida "2024-yil 1-yanvardan boshlab I guruh nogironligi bo'lgan shaxsga yoki 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolaga, shuningdek, davolash muassasining xulosasiga ko'ra, o'zgalarining parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yosha to'lgan qariyalarga qarab turishning haqiqiy holatlari ijtimoiy xodimlar tomonidan bir yilda bir marotaba o'rganiladi va o'rganish ma'lumotlari "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali yuritib boriladi. Bunda "Ijtimoiy himoya" ATdag'i qarab turishning haqiqiy holatlari to'g'risidagi elektron ma'lumotlar qarab turgan shaxsga pensiya tayinlashda ish stajiga

kiritish uchun asos hisoblanadi" deb ko'satilgan.

Bundan tashqari, adliya bo'limi tomonidan uyma-uy yurish davomida 90 nafar I guruh nogironligi bo'lgan shaxs "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari tomonidan tasdiqlangan jadval asosida tuman tibbiyot birlashmasi bilan kelishilgan holda chugurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilmagani, 73 nafari zarur dori vositalari bilan ta'minlanmagani hamda 10 nafar nogironligi bo'lgan shaxslarning nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazida statsionar sharoitda davolanish uchun yo'llanmaga ehtiyoji borligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilarga asosan, tuman adliya bo'limi tomonidan tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi va tuman Tibbiyot birlashmasiga taqdimnomalar kiritilib, I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga qarab turgan 46 nafar shaxsga pensiya tayinlashda ish stajiga kiritish uchun belgilangan tartibda ro'yxtardan o'tkazildi. 90 nafar I guruh nogironligi bo'lgan shaxslar chugurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan, 73 nafari zarur dori vositalari bilan ta'minlandi. 6 nafar bemor ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalariga davolanishga yuborildi.

Ilhomjon AHMEDOV,
Asaka tuman adliya bo'limi boshlig'i

URGUT tumanida 2 ming 500 nafardan ortiq yoshlar adliya otalig'iga olingan bo'lib, xonodonbay o'rganishlarda ularning 800 dan ziyod huquqiy muammolari ro'yxatga olindi. Hozirgacha ularning 560 dan ortig'i hal etilgan. Yoshlarning aksariyatiga yer maydonlari ajratilib, dehqonchilik orqali o'zini o'zi band qilishlariga sharoit yaratildi.

OTALIQQA OLINGAN YOSHLARNING BANDLIGI TA'MINLANMOQDA



Xususan, "Dehqonobod" mahallasida yashovchi Farid Ibragimov o'ziga ajratilgan yerda sholg'om ekib, daromad manbai yaratdi. Shu kunlarda u yetishtirgan hosil bozor rastalarini to'ldirmoqda.

- Bu men va men kabi yoshlar uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi, - deydi F. Ibragimov. - Ishsiz tengdoshlarim bilan berilgan imkoniyatlardan foydalaniib, shaxsiy daromadga ega bo'layotganimiz ayni muddao. Joriy yilgi hosildan 50 million so'm daromad olishni chandalab turibman.

Ishtixon tuman adliya bo'limi tomonidan otaliqqa olingan yoshlarning huquqiy muammolari bilan ishslash borasidagi chora-tadbirlar ham o'z samarasini bermoqda. "Sheyhlarke" mahallasida yashovchi Javlonbek Obloqulovga yaqinda o'zi istagan payvandlash uskunasi topshirilgan edi. Tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi Temur Qahhorovning ta'kidlashicha, adliya tomonidan xuddi shunday otaliqqa olingan 2 ming 400 nafardan ortiq yoshlardan 357 nafarining huquqiy muammolari bartaraf etildi.

**Samarqand viloyat adliya
boshqarmasi axborot xizmati**

HUQUQIY DAYJEST

"JASORAT MAKTABI" tashkil etiladi



PREZIDENTIMIZNING shu yil 15-noyabrdan imzolangan "O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2025/2026-o'quv yilidan boshlab maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitishda yangi tizim joriy etiladi.

Mazkur fanning "Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi, faol hayotiy pozitsiya" tamoyiliga asosan yangilangan o'quv dasturi va darsliklari yaratiladi. Shuningdek, har bir tuman (shahar)da bitta umumi y o'rta ta'lim maktabi negizida "Jasorat maktabi" faoliyati yo'lga qo'yiladi.

SHOVQIN SOLGAN JAVOBGAR BO'LADI



Ba'zan qaysidir qo'shnimiz televizor yoki boshqa qurilma ovozini baland qilib qo'shiq eshitayotgani yoki qiyqirib o'yayotgani qulog'imizga chalinib, asabimizni buzadi. Buning uchun esa tegishli javobgarlik belgilangan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 192-moddasiga binoan, tungi vaqtida - saat 23.00 dan 06.00 gacha fuqarolarning osoyishitaligi va normal dam olishini buzish, ya'ni baland ovoz bilan qo'shiq aytish, musiqa chalish, tovush signallari berish, xonadonlarda, turar joylarning yo'laklari va eshiklarida, ko'chalarda ovozi baland qilib qo'yilgan televizorlar, radiopriyomniklar, magnitonlar va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalardan foydalanish, turar joy binolarida va ulardan tashqarida juda zarur bo'lmagani holda shovqin chiqaruvchi ishlar qilish, shuningdek maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzuvchi boshqa harakatlarni sodir etish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi, mansabdor shaxslarga esa uchdan bir qismidan ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

RAQAMLI DALILLAR



Joriy yilning 21-novabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishslash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, Jinoyat-protsessual kodeksi "Raqamli dalillar" deb nomlangan 204-2-modda bilan to'ldirildi.

Unga ko'ra, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlar, shu jumladan, elektron tarzdagi fayllar, audio, videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmog'ida saqlanayotgan ma'lumotlar, shuningdek, boshqa elektron ma'lumotlar raqamli dalillardir.

Raqamli dalildan ko'chirma nusxa olishga, basharti, uning yaxlitligi va aynan o'xshashligi saqlansa, yo'l qo'yiladi. Raqamli dalildan ko'chirma nusxa olishga yo'l qo'yilishi o'zidan mazkur ko'chirma nusxa olingan raqamli dalilning asli mavjudligi bilan ta'minlanadi.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va boshqa shaxslar raqamli dalillarning ko'chirma nusxalarini qog'ozda chop etilgan shaklda taqdim etish huquqiga ega. Bunda raqamli dalilning qog'ozdagi shakli yozma dalil deb hisoblanishi mumkin emas.

Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov va sud jarayonida tuzilgan protsessual bayonnomalarga ilova qilingan, elektron ma'lumotlar tarzida shakllantirilgan audio, videoyozuvlar ham raqamli dalillar hisoblanadi.

Raqamli dalilning ko'chirma nusxasi ish materiallari bilan birga saqlanadi.

@huquqiyaxborot

4 MOHIYAT

EKOLOGIK MUAMMOLAR YECHIMINI KUTMOQDA

 KEYINGI yillarda insoniyatning atrof-muhitga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Natijada hayotning doimiyligini ta'minlaydigan asosiy jarayon, ya'ni tabiiy muvozanat buzildi, yer yuzining ko'pgina hududlarida noqlay ekologik sharoitlar paydo bo'ldi, mahalliy, mintaqaviy va global darajadagi ekologik muammolar kelib chiqdi.

2024-yil 24-sentabrdan Prezidentimizning "Chang bo'ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga asosan O'zbekiston Respublikasida chang bo'ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha 2024-2030-yillarga mo'ljallangan Milliy dastur tasdiqlandi.

Respublikamizda rivojlangan agrosanoat kompleksi mavjudligi atmosferaning sifat tarkibining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turg'un manbalardan atmosfera havosiga 150 dan ortiq iflosantiruvchi moddalar tashlanadi. Sanoatda yoqilg'i-energetika, kimyo va neft-kimyo sanoati oksidlari tashlamalarining tashlanishida asosiy hissa qo'shadi. Yoqilg'dan foydalanishning past samaradorligi atmosferaga ortiqcha tashlamalar tashlanishiga olib keladi, bu mazkur obyektlar joylashgan aholi yashash punktlari va shaharlarda (Toshkent, Angren, Navoiy) atmosfera havosining ifloslanishi darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Chang-qattiq zarralar demak, ularning dispers va komponent tarkibi (tabiiy yoki antropogen) kelib chiqishiga bog'liq. Ular tarkibiga mineral tuzlar, metall oksidlari va organik birikmalar kiradi. O'zbekiston hududida atmosferaga chang kelib tushishining yirik tabiiy manbalari - Qoraqum, Qizilqum va Orolqumning (Orol dengizining qurigan qismining) mustahkamlanmagan qumli tuproqlari va sho'rxok cho'llari hisoblanadi.

Ochilib qolgan dengiz tubi Orolqum tuzli cho'lini tashkil qiladi, bu yerdan har yili katta miqdorda tuz va qum zarrali changlar shamol yordamida tarqaladi. Chang-tuz ko'chishining asosiy hajmlari sohil-bo'yи polosasining 300 km oralig'i-da ro'y beradi. Janubiy Orolbo'yida tuproqqa tushadigan chang miqdori sug'oriladigan yerlarga qaraganda, o'n baravar ko'proqdir.

Ekologik partiya Toshkent shahri havosining kuz-qish oylarida ko'proq ifloslanayotgani muammosiga nimalar sabab bo'layotgani haqida ma'lumot berdi. Unga ko'ra, Toshkent shahri atrofida 1 ming 314 hektar maydonda 631 ta issiqxona ishlab turibdi. Ularning 60 foizi ko'mirdan, ba'zan esa rezina shinalar va boshqa yonuchi vositalardan foydalanmoqda. Havoning ifloslanishiga ko'p sanoat korxonalarida uskunalarining ma'nani

eskirgani va aksariyat korxonalar zamonaviy filtrlar o'rnatmayotgani sabab qilib ko'rsatildi.

O'zbekiston rasmiyalariga ko'ra, qurilishdagi xaos, mashinadan chiqayotgan zaharlar, rivojlanmagan jamoat transporti, infratuzilma yo'qligi, sanoat chiqindilari, ko'mir va mazutdan foydalanishning ortgani Toshkent shahri havosini iflosantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Havo ifloslanishi va u bilan bog'liq ekologik inqiroz iqtisodiy rivojlanish pallasida bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda tez-tez kuzatiladi. Ayrim davlatlar bu jarayondan tezroq va oqilona qarorlar hisobiga muvaffaqiyatlari o'tib olgan bo'lsa, ayrim davlatlarda mazkur inqirozli holat yanada murakkablashganini ko'rish mumkin.

YAPONIYA TAJRIBASI

Osiyoda ekologik holati barqaror va yuqori ekologik standartlarni joriy etish bo'yicha Yaponiya yetakchi hisoblanadi. Afsuski, bunday natijaga erishish uchun mamlakat atrof-muhit ifloslanishi natijasida yuzaga kelgan kasalliklar (minamata, astma va itayitay kasalligi) va jamoat sog'lig'i bilan bog'liq to'rtta jiddiy inqirozni boshidan o'tkazishiga to'g'ri kelgan. Ular dan uchtasi 1950-60-yillardagi yuqori iqtisodiy o'sish va sanoatlashish davriga to'g'ri keladi.

O'sha davrda ekologik va aholi salomatligi bilan bog'liq bu inqirozdan kechikib bo'lsa-da yapon hukumati to'g'ri xulosa chiqaradi. Birinchi navbatda, ekologiya sohasidagi qonunchilik takomillashtirilib, sohanai tartibga soluvchi bir qator yangi qonunlar qabul qilinadi. 1963-yili "Tutunlarni nazorat qilish to'g'risida", 1966-yilda "Suv sifatini nazorat qilish to'g'risida", "Sanoat suyuq chiqindilarini nazorat qilish to'g'risida", 1967-yili "Atrof-muhit ifloslanishi nazorat qilish to'g'risida", 1968-yili "Havo ifloslanishini nazorat qilish to'g'risida", 1973-yili "Atrof-muhit ifloslanishi natijasida aholi sog'lig'iga yetkazilgan ziyonni kompensatsiya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilingan.

1971-yili Miye prefekturasi tomonidan havo ifloslanishining oldini olish, atmosferaga tashlanmalar miqdori bo'yicha cheklavlar o'rnatish va tashlanmalar miqdorini keskin qisqartirish bo'yicha 5 yil muddatga erishilishi lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar joriy etiladi. Natijada belgilangan ko'rsatkichlarga muddatidan bir yil avval erishiladi.

Havo ifloslanishi darajasini monitoring qilish maqsadida 1960-yil

oxiridan boshlab havodagi oltin-gugurt oksidi va tushadigan chang miqdori o'lchana boshlaydi. 1962-yil yakunlarida havo sifatini avtomatik o'lchaydigan uskuna o'rnatiladi. 1966-69-yillarda 28 hektar maydonda shaharning Markazi yashil bog'i barpo etiladi. 1967-yil Miye prefekturasining atrof-muhit ifloslanishi ahvolini doimiy o'rganish va tadqiqot qilish uchun Atrof-muhit ifloslanishi markazi tashkil etilgan bo'lsa, 1971-yilga kelib Yaponiya Ekologiya vazirligi tashkil etiladi.

1990-yili shahar hokimligi tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olishga qaratilgan texnologiyalardan boshqa rivojlanayotgan davlatlar ham foydalanishi uchun Ekologik texnologiyalar transferi markazi, 2015-yili Yokkaichi ifloslanishi va kelajak avlodlardagi xabarorlikni oshirish bo'yicha ekologiya muzeyi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida atrof-muhit ifloslanishi va aholi salomatligi bilan bog'liq yuzaga kelgan inqirozli holat to'liq bartaraf etilgan. Bugungi kunda Yaponiyada, xususan, Yokkaichi shahrida ekologik holat ancha barqaror. Eng muhimmi, atrof-muhit tozaligi bo'yicha yuqori natijalar qayd etib kelinmoqda.

QONUNCHILIKKA TAKLIF

Bugungi kunda O'zbekistonda havo ifloslanishi ekologik va aholi salomatligi bilan bog'liq inqirozga aylanib ketmasligi uchun quyidagi takliflarni inobatga olish maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

Birinchidan, barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq barcha darajadagi qarorlarni qabul qilishda iqtisodiy va ekologik manfaatlar hamda insonning munosib yashashga bo'lgan huquqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash va inobatga olish zarur. Bunda ekologik tamoyillarni rad etish yoki ularga zid ravishda iqtisodiy manfaatlarga ustuvorlik berishdan voz kechish lozim.

Ikkinchidan, fuqarolarni atrof-muhit holati to'g'risidagi ishonchli axborot bilan ta'minlash maqsadida ekologiyaga oid axborotlarning ochiqligi va oshkorraligini ta'minlash va kengaytirish lozim. Har bir korxona va tashkilot kesimida atrof tabiiy muhit holatiga zararli ta'sir qiladigan yoki nomaqbtlar tarzda ta'sir etishi mumkin bo'lgan obyektlar, atrof tabiiy muhitga tushadigan zararli moddalarning turlari va miqdori, chiqindilarining hajmlari va tarkibi, o'zgarish dinamikasiga oid ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash va e'lon qilib borish muhimdir.

Uchinchidan, ekologiyaga zararli ta'sirlarning asosiy sababchilaridan biri korporativ sektor hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda korporativ hamjamiatning mas'uliyatini oshirish uchun korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) tamoyillaridan keng foydalilanadi.

Shu sababli, milliy qonunchilikda, xususan, tadbirkorlik va ekologiyaga oid qonunchilikda KIM tamoyillarini mustahkamlash orqali korporativ sektorning ekologik mas'uliyatini oshirish o'ta zarur hisoblanadi.

KIM korporativ sektorning jamiyat va atrof-muhitga ehtimoliy ta'siri yuzasidan mas'uliyati va hisobdorligini oshirishni nazarda tutadi. KIM nafaqat qonunlarga amal qilish, balki o'zining faoliyati ga qonunlarda nazarda tutilganidan ham yuqori standartlar joriy etish orqali, korporativ sektorning jamiyat va ekologiyaga salbiy ta'sirini minimallashtirish hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlar uyg'unligini ta'minlashni nazarda tutadi.

To'rtinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida keltirilgan atrof-muhitga zarar yetkazish darajasi yuqori va o'rta bo'lgan korxonalar tomonidan atrof-muhitga zarar ko'lamenti kamaytirish va oldini olish uchun ilg'or ekologik tozalash texnologiya va filtrlarini majburiy qo'llash tartibini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Bunda xuddi sement ishlab chiqarish tashkilotlari uchun Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-apreldagi "Sement ishlab chiqarish tashkilotlari faoliyati us'tidan ekologik nazoratni kuchaytirish to'g'risida"gi qarorida belgilangani kabi mazkur korxona va tashkilotlarga tutash hududlarida statsionar kuzatish punktlari-(postlar)ni o'rnatish hamda fon monitoringini real vaqt rejimida onlayn uzatishni yo'lga qo'yish taklif qilinadi.

Bunda atrof-muhitga jiddiy ziyan yetkazadigan korxonalar faoliyati ekologik va jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali nazorat qilinishi va fosh etilishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, ekologik nazoratni amalga oshiruvchi idoralarning mustaqil, xolis faoliyat yuritishini ta'minlash lozim. Ayni paytda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufida bo'lgan ekologiyani asrash bilan bog'liq bo'lmagan yoki aksincha unga ziyan yetkazishi mumkin bo'lgan Turizmni rivojlantirish qo'mitasi vazirlik tasarrufidan chiqarilishi maqsadga muvofiq.

Jumanazar XOLMO'MINOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori


YANGILANGAN Konstitutsiya-ga muvofiq, ilk bor shaxsni ush-lash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi, ayblanuvchi va sud-lanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, sukul saqlash huquqi berildi.

Xalqaro huquqda va har bir davlatda inson huquqi va erkinliklari, shaxsning sud va tergov organlari-dagi himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladigan ko'plab tarixiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, AQSHda o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan Ernest Arturo Miranda nomi bilan bog'liq "Miranda qoidasi" ham ana shunday hujjatlar qatoriga kiradi.

Gap shundaki, AQSHning Arizona shtati politsiyasi jinoyatchi E. Mirandani 1966-yil bir necha og'ir jinoyatni sodir etganlikda gumon qilib, hibsga oladi. Shundan so'ng tergov jarayoni boshlanadi. Ammo Mirandaga so'roq qilinishdan oldin gumonlanuvchi sifatidagi huquqlari tushuntirilmaydi. Shu bois, E. Miranda o'z huquqlarini bilmagan holda, aybiga iqrorlik to'g'risida ko'rsatma beradi. Bu ko'rsatmalardan esa, uning aybiga iqrorigining isboti sifatida foydalaniladi. Oqibatda esa, E. Miranda sudning hukmi bilan jazoga mahkum etiladi.

Keyinchalik E. Mirandaning 73 yoshli advokati Elvin Mur tomonidan AQSH Oliy sudiga shikoyat taqdim etiladi. Natijada E. Miranda o'z huquqlaridan xabar-dor qilinmay tergov qilingani uchun sudning hukmi AQSH Oliy sudi tomonidan bekor qilinadi. Sudning ayni shu qarori tufayli yuzaga kelgan mazkur yuridik norma dastlab AQSH sud amaliyotida "Miranda huquqlari"

XALQARO HUQUQNING ENG MUHIM MEZONI



deb yuritiladi. Keyinchalik esa, xalqaro huquqda "Miranda qoidasi" nomini oлган.

Agar AQSH misolda advokatning mavjudligi Konstitutsiya va "Miranda qoidasi" bilan kafolatlangan bo'lsa, Kanadada bu masala bo'yicha "Huquq va erkinliklar Xartiyasi" – "har kim hibsga olingen taqdirda darhol advokatning yordamiga mu-rojaat qilish huquqiga ega"ligi qonuniy tartibga solingan. Fransiyada Miranda huquqi 1993-yilda paydo bo'lgan, Germaniyada ayblanuvching sukul saqlash huquqi 1879-yilda jinoyat-protsessual qonunda mustahkamlangan. Rossiyada 1993-yilda Konstitutsiya qabul qilinishi bilan "Miranda qoidasi" faqat Jinoyat-protsessual kodeksida na-zarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining

2000-yil 14-maydagi qonuni bilan jinoyat sodir etishda gumon qilin-gan shaxs huquq va manfaatlarini kafolatlash maqsadida Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartishlar kiritildi. JPKning 224-moddasiga binoan, ichki ishlar organi xodimi ushlab turishning qonunda ko'r-satilgan asoslari mavjudligini be-vozita aniqlasa, gumon qilinuvchiga u jinoyat sodir etishda gumon qilinib, ushlanganini ma'lum qilishi, ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo'lish, ko'rsatuvlar berishni rad etishga bo'lgan protsessual huquqlarini tushuntirishi, ushlab turilgan shaxsga u bergen ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini bildirishi shart.

Shuningdek, Konstitutsiyada aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvching, ayblanuvching, sud-lanuvching yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi qayd etilgan. Mazkur norma to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qoida bo'lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi hamda shaxsni asossiz ravishda javobgarlikka tortilishdan himoya qiladi.

Qolaversa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi mustahkamlandi, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Bu qoidalarning Konstitutsiyamizda belgilanishi jinoiy ta'qib ostidagi har qanday shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga ruhiy bosim va turli tahdidlar o'tkazish, uning sha'ni va qadr-qimmatini kamstish kabi boshqa noqonuniy usullar qo'llanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim norma – agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlanmoqda. Bu hol jinoyat bo'yicha haqiqatni aniqlash, shuningdek, aybsiz shaxslarning javobgarlikka tortilishini oldini olishga, ayni paytda, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdorlarni aniqlashga xizmat qiladi.

**Dilbar SUYUNOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori,
Baxram XUDAYBERGENOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
dotsenti, yu.f.f.d.**

TALABA ISHLASHI MUMKIN



ADLIYA vazirligi tomonidan 2003-yil 22-fevralda 1222-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim to'g'risida"gi Nizomda kunduzgi ta'limdagi talabalar o'qishdan bo'sh vaqtlarida kunning ikkinchi yarmida oliy o'quv yurti va boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi tuzgan holda ishslashlari mumkinligi aytilgan. Lekin buni ish beruvchilar talabalarga faqat kunning ikkinchi yarmidagina ishlashga ruxsat berilgan, deb tushunmasligi kerak. Chunki boshqa yuqori turuvchi va ustuvor qonun hujjatlaridagi umumnormalar har qanday shaxslarning, jumladan, talabalarning mehnat qilish huquqini ham birdek e'tirof etadi.

Shuningdek, Mehnat kodeksida ishni ta'lim bilan birga olib borayotgan xodimlarga kompensatsiya va kafolatlar belgilangan. Talaba o'qishdan bo'sh vaqtarda bemalol ishlashi mumkin. Mehnat kodeksining 383-moddasida ish beruvchi mehnat shartnomasi bo'yicha ishdan ajralmagan holda ta'lim tashkilotlarda o'qitilayotgan, qayta tayyorlashdan yoki malaka oshirishdan o'tayotgan, shuningdek, ishlab chiqarish ta'limini o'tayotgan xodimlarga ish va o'qishni birga olib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi shart. Ya'ni, ish beruvchi talaba ekanini asos qilib ishga

qabul qilishni g'ayriqonuniy rad etish mumkin emas. Unga mehnat qonunchiligidagi belgilangan imkoniyatlarni yaratib berishi kerak.

Bundan tashqari, talabalarga o'rtacha ish haqni saqlangan holda o'quv ta'ili, qisqartirilgan ish haftasi hamda mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan o'zga kafolatlar beriladi. Shuningdek, mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan talabalarga mehnat ta'tili, ish beruvchi, ularning xohishiga ko'ra, bakalavriat talabalari uchun davlat attestatsiyasi va bitiruv malaka ishini himoya

qilish, magistratura talabalari uchun magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish vaqtiga yoxud imtihonlar va laboratoriya-imtihon sessiyalari vaqtiga to'g'rilab berishi shart. Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga hujjat topshirmoqchi bo'lsa, ish beruvchi ushbu xodimga ish haqi saqlanmagan holda 15 kalendar kun ta'til beradi.

Mehnat qonunchiligidagi kechki hamda sirtqi ta'lim shaklida o'qiydigan xodimlarga ham kafolatlar belgilangan. Kodeksning 385-moddasiga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarida kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan birinchi va ikkinchi kurs talabalariga kamida yigirma kalendar kun, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida kamida o'n kalendar kun, oliy va o'rta maxsus ta'lim shaklida o'qiyotganlarga esa kamida o'ttiz kun, oliy ta'lim tashkilotlarida kechki ta'lim shaklida uchinchi va undan yuqori kurslarda o'qiyotganlarga kamida o'ttiz kalendar kun, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida kamida yigirma kalendar kun, oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb hunar ta'limi tashkilotlarida sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotganlarga esa kamida qirq kalendar kun muddatga o'rtacha ish haqi saqlangan holda har yili beriladi. Talabalik davridagi mehnat faoliyati ham ish stajiga kiritiladi.

Umuman olganda, talabaning o'qish davrida ishslashiga ruxsat berilishi nafaqat uning kundalik kun kechirishiga, balki o'qishiga ham investitsiya kiritishiga imkon beradi.

**Nargiza AXTAMOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti 3-bosqich talabasi**

6 KONSTITUTSIYANI O'RGANAMIZ

KONSTITUTSIYANING 78-moddasiga muvofiq, bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Mazkur konstitutsiyaviy norma bilan bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha kafolatlar kuchaytirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuniy asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

2024-yilning 14-noyabrida qabul qilingan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun ham bola huquq va erkinliklarining muhim kafolati hisoblanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 1 milliardga yaqin bolalar jismoniy, jinsiy, ruhiy zo'ravonlikka duch kelishadi. Jabrlangan bolalarning 10 foizigina yordam so'rab murojaat etishsa, 80 foizi bu haqda hech kimga xabar bermaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunida birinchi marta zo'ravonlik xavfi ostida bo'lgan bolalarning 12 toifasi (yetimlar, ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, nogironligi bo'lgan bolalar, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanuvchi bolalar, ta'llim va tarbiya talablariga javob bermaydigan sharoitlarda bo'lgan bolalar, ijtimoiy xavfli vaziyatda qolgan bolalar) aniq belgilangan. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik shakllariga berilgan ta'riflar soni 3 tadan (jismoniy, jinsiy, ruhiy) 6 taga (g'amxo'rlik qilmaslik, ekspluatatsiya, bulling) oshirilmoqda.

Tarbiya jarayonida jismoniy jazolash TAQIQLANADI



Qonunga muvofiq, zo'ravonlikdan jabrlangan bolaga yoki uning qonuniy vakiliga himoya orderi ichki ishlar organlari tomonidan 30 kungacha muddatga beriladi va vakolatli davlat organi ishtirokida topshiriladi. Zo'ravonlikdan jabrlanuvchining yoki uning qonuniy vakilining arizasiga ko'ra, agar tahdid halibartarafta etilmagan bo'lsa, himoya orderingining amal qilish muddati jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin.

Shu bilan birga, ota-onalarning mas'uliyati oshirilmoqda. Xususan, ota-onalar bolalar hayoti va sog'lig'ini asrashi, ular haqida g'amxo'rlik qilishi va zararli ta'sir ko'rsatuvchi axborotdan himoya qilishi kerak, tarbiya jarayonida bolalarni jismoniy jazolash taqiqlanadi.

Bugungi kunda dunyoning saksonga yaqin mamalakatlarida Bolalar ombudsmani faoliyat yuritadi. Ularning asosiy vazifasi "Bola huquqlari to'g'risida"gi


konvensiya qoidalarini qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha'ni, qadr-qimmati, huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoyasiga davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini institutlarini jalb etishdan iborat.

Bolalar huquqlari bo'yicha ombudsman lavozimi birinchi bo'lib Norvegiyada 1982-yilda ta'sis etilgan. Shvetsiyada esa bunday institut 1993-yilda faoliyat boshlagan. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida, jumladan, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Lyuksemburg, Finlyandiya kabi davlatlarda Bola huquqlari Ombudsman instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda 2019-yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinnbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etildi.

Bola huquqlari haqiqiy ma'noda himoya etiladigan va hurmat qilinadigan muhitni yaratish uchun nafaqat davlat tashkilotlarining bu boradagi faoliyati, balki fuqarolik jamiyatini institutlarining ham o'zaro hamkorligi taqozo etiladi. Eng muhimi, barchamiz ham bola huquqlarini himoya qilishga o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin. Qanday qilib deysizmi? Bola huquqlarini ta'minlashga doir qonunlarga rioya qiling, qonunchilikdagi oxirgi yangiliklar to'g'risida o'z farzandlaringizga ham so'zlab bering. Yashayotgan, ta'lif olayotgan, mehnat qilayotgan jamoalaringizda bola huquqlari poymol qilinayotgan holatlarga guvoh bo'lsangiz, bu haqda vakolatli organlarga murojaat qiling.

**Shoxruh ZOKIROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
huzuridagi akademik litsey o'quvchisi**

Orzularim qanoti



2024-YIL men uchun anchagini omadli va samarali yil bo'ldi. Orzuim ushaldi – Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litsey o'quvchisi bo'lish nasib etdi.

Akademik litseyga kirish imtiyonilariiga tayyorgarlik ko'rish davrida Konstitutsiyani to'liq o'qib, o'rganib chiqdim. To'g'risi, boshida o'qiganim sari uni tushunish men uchun ancha qiyin kechdi. Yanada oson va to'liq tushunish uchun, avvalambor, Konstitutsiya tushunchasi, uning yaratilish tarixi bilan tanishishdan boshladim. O'rganish va o'qish davomida olgan bilimlarimni tizimlashtirishga ahd qildim. Konstitutsiyamiz tarixini o'rganish davomida juda ko'p narsani bilib oldim.

Konstitutsiya lotincha "Constitution" so'zidan olingan bo'lib, "tuzilish", "tuzuk" degan ma'nolarni anglatadi. Oddiy qilib aytganda, Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. "Konstitutsiya" atamasi Qadimgi Rimdayoq ma'lum bo'lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). "Temur tuzuklari" Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari

bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi mustaqil jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi. O'zbekiston Konstitutsiyasing g'oya va normalarida xalqimizning ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchilikimizning barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy tizimni tashkil etdi.

O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu esa Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan adolatli va xalqparvar davlat barpo etish yo'lida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni to'laqonli amalga oshirish uning maqsadi,

ko'lamiga monand va munosib bo'lgan yangi mustahkam konstitutsiyaviy makonni shakllantirishni taqozo etdi.

Konstitutsiya doimo harakatdagi muhim siyosiy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, konstitutsiyaviy islohotlar tabiiy rivojlanish natijasi bo'lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarni aniqlab olish vaadolatli jamiyat qurish yo'liga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangilash zarurati tug'ildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya avvalgisini 65 foizga yangilagan holda qabul qilingan bo'lib, yangilanish natijasida, Konstitutsiyadagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshgan. Bosh qomusimizda barcha jabhalar qatori davlat hokimiyati va boshqaruva tizimiga oid eng muhim 10 ta demokratik o'zgarishlar bo'lgan.

Yangilangan Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar, Qonunchilik palatasining vakolatlari esa 5 tadan 12 taga ko'paydi. Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiylari bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng taklif etish tartibi joriy qilindi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasiga faoliyati qoniqarsiz deb topilgan vazirni lavozimidan ozod etish bo'yicha Prezidentga taklif kiritish huquqi berildi. Oliy Majlis Senati ham ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan organga aylanmoqda. Buning amaliy tasdig'i sifatida senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushirildi. Senatning mutlaq vakolatlari 14 tadan

18 taga ko'paydi. Unga Prezidentning bir qator vakolatlari o'tkazildi.

Qolaversa, Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash maqsadida Sud-yalar oliy kengashining barcha a'zolari Senat tomonidan saylanishi, shuningdek, Qonunchilik palatasi va Senatga parlament tekshiruvni o'tkazish huquqi mustahkamlandi.

Shu bilan birga, Qonunchilikka takliflar kiritish instituti joriy qilindi. Saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolar, Senat, Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritish huquqiga egaligi qayd qilindi.


Ijro organi hisoblangan – Vazirlar Mahkamasining iqtisodiyot, ijtimoiy ta'minot, kambag'allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologiya kabi sohalardagi vakolatlari kengaytirilishi olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko'tardi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya menga o'z davlatimda erkin va farovon yashashim, Konstitutsiyada belgilangan barcha huquqlardan to'laqonli foydalanish imkonini berdi. Shu bilan birga, zimmadagi konstitutsiyaviy majburiyatlarimni halol va mas'uliyat bilan ado etish orqali Konstitutsiyada qayd etilgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni barpo etish ishiga o'zing munosib hissamni qo'shishga intilishdir.

**Rustamxon SA'DULLAYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
huzuridagi akademik litsey o'quvchisi**

Buzilgan do'kon zargarini to'lash

PAYSALGA SOLINGAN



NURAFSHON shahar adliya bo'limi tomonidan fuqaro M. Esanbayevaning Oybek mahallasi, Toshkent yo'li va X. Mirzayeva ko'chasidagi sobiq "Dehqon bozori" hududida joylashgan noturar bino buzilishi natijasida ko'rilib zararni qoplashda amaliy yordam berishni so'rab yo'llagan murojaati o'rganib chiqildi.

Aniqlanishicha, Prezidentning 2017-yil 3-noyabrdagi "Toshkent viloyati tarkibida Toshkent tumani, shuningdek viloyatga bo'y sunuvchi Yangiyo'l, Ohangaron va Nurafshon shahar hokimliklarini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Nurafshon shahar hokimining 2018-yil 27-apreldagi va 12-iyundagi qarorlariga asosan fuqaro M. Esanbayevaga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan sobiq bino buzilgan va shahardagi "Birlik" MFYdan ajratilgan "Savdo majmuasi" hududidan 2 hissa, ya'ni 74,60 kv.m yer maydoni ajratilgan. Biroq, ushbu qaror ijrosi ta'minlanmagan, M. Esanbayevaga ajratilishi lozim bo'lgan yer maydonining chegara chiziqlari ham aniqlab berilmagan.

M. Esanbayevaga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan noturar bino buzilishi munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan zararning bozor qiymati

baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan "Ali estimate consult" MCHJ tomonidan tuzilgan 2024-yil 30-avgustdag'i baholash hisobotiga asosan 303 million so'mga baholangan hamda ushbu baholash hisoboti yuzasidan "Kontinent imkon baho" MCHJ tomonidan 2024-yil 9-sentabrda ekspert xulosasi berilgani ma'lum bo'ldi.

O'rganish natijalariga ko'ra, shahar adliya bo'limi tomonidan fuqaro M. Esanbayevaning manfaatida shahar hokimligidan 303 million so'm kompensatsiya undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rtachirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, da'vo qanoatlantirildi.

Sohibbek NURALIYEV,
Nurafshon shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi

USTAMA PULI UNDIRILDI



O'RTACHIRCHIQ tumani, "O'rta ovul" mahallasida yashovchi fuqaro M. Junusovaning tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida uzoq yillar davomida ishlab kelgani, lekin ko'p yillik mehnati uchun ustama berilmaganidan norozi bo'lib, Nurafshon shahar adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganib chiqildi.

O'rganish jarayonida shahar adliya bo'limiga iqtisodiyot va moliya bo'limi tomonidan 2024-yil 21-iyulda taqdim etilgan ma'lumotnomaga ko'ra, M. Junusovaga 1992-yildan o'rganish davriga qadar 18 yil 2 oy 5 kun uchun 120 foiz, ya'ni bir oylik ish haqi ustamasi 1 million 560 ming 787 so'm, 4 oyga 6 million 243 ming 148 so'm bo'lishi ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 25-apreldagi buyrug'i ilovasiga asosan tasdiqlangan Nizomning 3-bandida "Vazirlikning markaziy apparati xodimlariga respublika budgeti ma'blag'lari hisobidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalari, tuman (shaharlar) kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlarining xodimlariga ko'p yillik xizmatlari uchun to'lovlarini moliyalashtirish tegishlichcha Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgeti, viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shaharlarning mahalliy budgetlari hisobidan amalga oshiriladi" deb belgilab qo'yilgan.

To'plangan hujjatlarga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan M. Junusovaning manfaatida unga javobgar shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limidan 6 million 243 ming 148 so'm ustama haqini undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rtachirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, sudning hal qiluv qarori qabul qilindi.

Farrux NAZAROV,
Nurafshon shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

YANGIYER shahrida faoliyat yurituvchi "Trans imkon servis" MCHJ rahbarining "O'zyo'lko'prik" klasteri Sirdaryo filiali davlat muassasasidan hamkorlik uchun imzolangan shartnoma majburiyatlarini bajarilganidan norozi bo'lib, shahar adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganildi.

TADBIRKOR MANFAATI HIMoya QILINDI



Aniqlanishicha, taraflar o'tasida transport va mexanizm xizmati ko'rsatish, ijara shartnomasi, transport va mexanizm xizmati ko'rsatish va avtotransport vositasini ijara berish bo'yicha qator shartnomalar tuzilgan hamda ushbu shartnomalarga asosan "Trans imkon servis" MCHJ tomonidan xizmatlar belgilangan muddat va shartlarda bajarilgan, biroq "O'zyo'lko'prik" klasterining Sirdaryo filiali tomonidan shartnoma majburiyatlarini to'liq bajarilmasdan, o'tgan davrda 207 million 272 ming 90 so'm qarzdorlik vujudga kelgan, bu bo'yicha solish-tirma dalolatnomasi ham imzolangan.

Tadbirkor qarzdorlikni so'ndirish bo'yicha muassasa ma'muriyatiga og'zaki va yozma ravishda bir necha marotaba murojaat qilgan, talabnomasi ham yuborishiga qaramasdan, amaliy natija bo'lmagan.

Achinarlisi, mazkur qarzdorlikning to'lanmasdan kelinayotgani oqibatida tadbirkor moddiy zarar ko'rgan hamda ishchi va xodimlariga o'z vaqtida ish haqi to'lash imkoniyati bo'lmagan, boz ustiga soliq majburiyatlarini bajarishda ham muammolar yuzaga kelgan.

Yuqoridagilarga asosan, adliya bo'limi tomonidan "Trans imkon servis" MCHJ manfaatida Guliston tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Da'vo arizasi qisman qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qarori bilan qarzdor davlat muassasasi hisobidan MCHJ foydasiga 77 million 272 ming 90 so'm asosiy qarz va 15 million so'm penya undirilishi belgilandi.

Hayitboy SAYITOV,
Yangiyer shahar adliya bo'limi boshlig'i

E'LONLAR

Advokat Matxoliqov Iskandar Nasir-dinovich vafot etganligi va bu to'g'risida 2024-yil 11-noyabrdagi 4-1712-24-00971-raqamli o'lim haqida dalolatnomasi yozuvini qayd qilinganligi sababli unga 2024-yil 21-dekabrda berilgan L-70662130 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 14-noyabrdagi 386-um-son buyrug'iga asosan tugatildi.

Advokat Mukarramov Sultonbek Ulug'bek o'g'li uch oy ichida advokat qasamyodini qabul qilmaganligi va yakka tartibda yoki litsenziyaga ega bo'lgan boshqa shaxslar bilan birligida advokatlik tuzilmasini tuzmag'anligi yoxud faoliyat ko'rsatayotgan advokatlik tuzilmalaridan biriga kirmaganligi sababli unga 2024-yil 6-mayda berilgan L-70665526 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 14-noyabrdagi 386-um-son buyrug'iga asosan tugatildi.

Jizzax viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati apellyatsiya instansiyasining 2024-yil 29-oktabrdagi ajrimiga asosan Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Boymatov Jinoyat kodeksining 192"-moddasi ikkinchi qismi "a" bandi hamda 228-modda ikkinchi qismi "b" bandi bilan ayblu deb topilgan.

Shunga ko'ra, adliya boshqarmasining 2024-yil 14-noyabrdagi 253-um-son buyrug'iga asosan Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A. Boymatova berilgan (GZ 0024, 10.11.2020-yil) litsenziyaning amal qilish muddati hamda notarius maqomi tugatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vazirining 2024-yil 21-noyabrdagi 274-um-son buyrug'i bilan "Advokat-Marat" advokatlik byurosiga advokati Abdinasirov Marat Abdrasuliyevichning vazirlig tomonidan 2023-yil 12-oktabr kuni berilgan L-7066422-son advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilish muddati va advokatlik maqomi o'z arizasiga asosan tugatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 5-noyabrdagi 242-um-sonli buyrug'iga asosan, advokat Sayfiyev Umedjon Salimjonovichga 2023-yil 26-sentabrda berilgan L-706679-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda 2023-yil 26-sentabrda berilgan 000602-sonli advokatlik guvohnomasining amal qilishi tugatildi.

8 MINBAR

INSON HUQUQLARINING ISHONCHLI KAFOLATI

Boshlanishi 1-sahifada.

Masalan, fuqarolarning ta'limgan olish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, avval har bir kishi ta'limgan olish huquqiga ega, degan norma bor edi. Endi esa mana shu ta'limgan olish huquqini ta'minlash uchun davlatning majburiyatlar keltirildi. Ya'ni, davlat ta'limgan muassasalarini va nodavlat ta'limgan muassasalariga teng imkoniyatlar yaratib berish davlatning majburiyatidir. Har kim bilim olish huquqiga ega degan norma mavjud bo'sada, davlatning ta'limgan sohasida amalga oshirishi kerak bo'lgan majburiyatlar mavjud emas edi.

Yoki boshqa huquqlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, masalan, har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega degan norma mavjud edi. Lekin fuqarolarning uy-joyli bo'lish huquqini ta'minlash uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, o'sha turar joylarni qurish bilan bog'liq majburiyatlar belgilanmagan edi. Ya'ni, insonga huquq berilishi bilan uni amalga oshirish va uni ta'minlashda kim mas'uliyatni oladi, degan masala Konstitutsiya bilan yechim topdi.

Konstitutsianing birinchi muddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi belgilab qo'yildi. Ijtimoiy davlatning o'ziga xos xususiyati shundaki, davlat o'z fuqarolariga, ya'ni xalqiga teng imkoniyatlar yaratib, ijtimoiy soha rivojanishiga xizmat qilishi kerak. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari, Alisher Navoiy, Sa'diy Sherzozi va boshqa mutafakkirlarning ilmiy asarlarida ham ijtimoiy davlat g'oyalari mavjud bo'lgan. Bunday davlatlar har bir insonga ijtimoiy-iqtisodiy sohada rivojanishi uchun sharoitlar yaratib beradi. Asosiy e'tibor insonning ijtimoiy sohada rivojanishiga qaratiladi, ya'ni inson o'zini kamolotga yetkazishi uchun davlat sharoit yaratib berishi kerak.

Avval ham Konstitutsiyamizda fuqarolarga ijtimoiy ta'minot olish huquqi belgilangan bo'lsa, ijtimoiy sohadagi huquqlarni amalga oshirish mexanizmlari mavjud emas edi. Demak, ayrim huquqlarning berilganligi davlatning ijtimoiy davlat sifatida mavjud bo'lishi uchun yetarli bo'lmaydi. Ijtimoiy davlat shunday davlatki, u asosiy e'tiborni ijtimoiy sohada fuqarolari kamolotga yetishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratishga qaratadi.

Bundan tashqari, Konstitutsianing 52-moddasida o'qituvchilarining huquqiy maqomi belgilab berilgan. Ularning sha'ni va qadr-qimmatini muhofaza qiladigan, mehnatidan faqat davlat va jamiyat rivojanishi, barkamol avlodni rivojlanish, salohiyatini oshirish uchun foydalanish mumkinligi belgilab qo'yildi. Mazkur modda ikkita qismdan iborat. Unda o'qituvchilarining maqomi va ularga oid kafolatlar aniq belgilandi. Avvallari o'qituvchilarini turli xil jamoat ishlariga, xizmat majburiyatiga kirmaydigan, ya'ni ularning vazifasi

bo'limgan ishlarga jalb qilish holatlari odat tushga kirib qolgan edi. Xususan, paxta yig'im-terimi, obodonlashtirish, tozalash ishlariga jalb qilish holatlari mavjud edi. Bu holatlardan pedagoglarning o'z ustida ishlab, bilimlarini oshirib, yoshlarga yaxshiroq va sifatliroq ta'limgan berishiga to'sqinlik qilgan, albatta.

Endi davlat mana shunday huquqiy kafolatlarni berishi, qonunlarda belgilab qo'yishdan tashqari, Konstitutsianing o'zida ham aniq normalar bilan kafolatlanishi ularning huquqiy erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini yanada ishonchliroq himoya qiladi.

Faxriddin MADIYEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori:

- Konstitutsiya to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiyada inson va davlat o'rta-sidagi munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar inson foydasiga hal qilinishi haqidagi norma qat'yan belgilandi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Konstitutsiya to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi. Ya'ni, agar biron bir qonun hujjatida ziddiyatlar mavjud bo'lsa, Konstitutsianing ana shu normasi ishlaydi va har qanday masala inson foydasiga hal etiladi. Bu norma insonlarni ortiqcha ovoragarchilikdan xalos etuvchi vosita sifatida ham e'tirof etiladi.

Bundan tashqari, insonga majburiyatlar yuklash bilan bog'liq masalalarga anqlik kiritildi. Masalan, insonga yuklanayotgan har qanday majburiyatlar faqat qonunda belgilanishi lozim. Qonunda belgilanmagan majburiyatlarining yuklanishi Konstitutsiya nuqtayi nazaridan noqonuniy hisoblanib, bu mumkin emasligini anglatadi.

Inson huquqlarida eng katta e'tibor shaxsiy huquq va erkinliklarning ta'minlanishiga qaratiladi. Jumladan, Konstitutsiyamizda insonning manfaatlarini himoya qiluvchi normalar o'ziga xos ahaliyat kasb etadi. Xususan, o'lim jazosining taqiqlanishi orqali insonning fundamental, ajralmas, tabiiy huquqi hech qachon bekor qilinmasligi belgilandi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaga kiritilgan eng muhim o'zgarishlar xalqaro miqyosda umume'tirof etilgan normalarning joriy etilishidir. Shuningdek, shaxsni qirq sakkiz soatdan ortiq sud qarorisiz ushlab turish mumkin emasligi, Miranda huquqi bilan bog'liq normalar ham kiritildi. Bu ham aslida xalqaro miqyosda umum e'tirof etilgan norma hisoblanadi. Bunda shaxsni ushlab turayotgan paytda unga tushunarli tilda huquqlari va ushlab turish asoslari tushuntirilishi kerak. Bu esa

ushlangan shaxsning huquqlarini ta'minlaydigan vosita hisoblanadi.

Konstitutsiyalar zamonaviy qoidalar bilan ham boyitilishi kerak. Chunki insoniyat yashayotgan paytda yangi huquq va majburiyatlar yuzaga kelaveradi. Inson va davlat o'rta-sidagi munosabatlardan esa doim takomillashib boradi. Hozirda raqamli texnologiyalar rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'sirida yangi huquqlar ta'minlanishiga bo'lgan ehtiyoj sezilmoqda. Konstitutsiyada esa hozirgi kun uchun zarur bo'lgan huquqlar himoyasi belgilangan. Jumladan, shaxs o'zi haqida noqonuniy yo'l bilan to'plangan yoki noto'g'ri asoslarga ega bo'lgan ma'lumotlar o'chirilishini talab qilish huquqiga ega. Bu shuni anglatadiki, shaxs internet tarmoqlaridan o'ziga nisbatan noto'g'ri to'plangan ma'lumotlarni yo'q qildirish imkoniyati mavjud emas. Lekin u Konstitutsiyada belgilangan bo'lsa, bu davlatning majburiyati bo'ladi va davlat har bir shaxsning ushu huquqlariga rioya etilishini ta'minlashi lozim. Bunday holda qonuniy ta'minot yuzaga keladi. Bu esa maxsus qonun hujjatlari orqali himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi.

Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega. Endilikda, huquqni qo'llovchilar tomonidan bevosita q'llanish imkoniyati yaratildi. Ya'ni, sud, sudya yoki prokuror bevosita Konstitutsiya muddalariga asoslanib qaror qabul qilishi mumkin. Bu esa Konstitutsiana to'g'ridan-to'g'ri amal qilishiga olib keluvchi vositadir.

Konstitutsianing 20-moddasi inson va davlat o'rta-sidagi vujudga keladigan munosabatlarda qonunchilikda yuzaga keladigan ziddiyatlar inson foydasiga hal qilinishini belgilaydi. Shu o'rinda bir misol, joriy yilda magistraturaga qabul qilinigan xotin-qizlar bilan bog'liq bir masalada ziddiyatli holat paydo bo'ldi. Ya'ni, Bank-Moliya akademiyasiga xotin-qizlar belgilangan kvotadan oshgan holda qabul qilindi. Prezident qarorida barcha xotin-qizlarga kontrakt puli to'lanishi nazarida utilgan. Vazirlar Mahkamasi qarorida esa "kvota asosida" deb belgilangan. Shuning uchun ham natijada ziddiyat yuzaga keldi.

Bunday holatda Konstitutsiya ikkita masalaga yechim beradi. Bu masala davlat va inson o'rta-sidagi munosabatlarda va ikki normativ hujjat o'rta-sidagi vujudga keldi. Shunda, Konstitutsiya ishlaydi va masala inson foydasiga hal qilinishi kerak. Ya'ni, o'qishga qabul qilingan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovleri davlat hisobidan qoplab berilishi tartibi amalga oshdi va ularning huquqlari tiklandi.

Agar shaxsning aybiga iqrorigi yagona dalil bo'lsa, uning aybi isbotlanmagan hisoblanadi. Bu bilan aybdor shaxs aybini isbotlash uchun boshqa vositalardan foydalanishi lozimligi e'tirof etildi. Iqroriglik yagona dalil hisoblanmaydi, uning o'sha sudda oqlanishiga olib keluvchi eng asosiy vosita hisoblanadi. Bu esa tergov organlariga yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bevosita majburiyat yuklaydi.

Bundan tashqari, shu holat bilan bog'liq yana bir muhim o'zgarish bor. Shaxs hech qachon o'ziga yoki yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatma berishga majbur emasligi ham belgilab qo'yildi. Bu esa Konstitutsiyadagi shaxsiy huquqlarni himoya qiluvchi norma hisoblanadi. Buni tergov jarayonlarida shaxsga nisbatan har qanday qiyinoq usullarining oldini oluvchi vosita, desak ham to'g'ri bo'ladi.